

QORAQALPOG'ISTONDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH
HAQIDA DASTURLAR

Q. Primbetov

NDPI, Ajiniyoz nomidagi NDPI «Milliy g'oya,
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi» kafedrasining katta o'qituvchisi

O'zbekiston xalqi ham mamlakatimiz tarixida katta siyosiy, jamiyatlik, ijtimoiy va ma'naviy turmushda natijalar va yangiliklar bo'lmoqda. Yurtimizning, mamlakatimizning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarida huquqiy kafilligi Konstitutsiya va qonun ustunligi hayotimizda o'z natijasini bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. asosiy qonuni asosida: O'zbekiston hukumatining Qoraqalpog'iston Respublikasi ham viloyatlarda **«Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish haqida»** qonun va biyliklari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekistonda turizmni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlar» qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining: «Turizmni rivojlantirish haqida» dasturi yurtimizda sayohat va turizm bo'yicha bugungi kunda ham istiqboli qanday bo'lishi jamiyatga targ'ibot-tashviqot qilishi, milliy radio eshittirish jamoati tomonidan, uning ma'naviy-madaniy ma'rifiy sohasida o'rni alohida ekanligi jamiyat modernizatsiyasida ayon bo'lmoqda.

Prezidentimiz boshchiligidagi yurtimizning barcha sohalarida, ular ichida yurtimiz iqtisodining va ma'naviyatining bugungi kuni, kelajagi bo'lgan jahon turizm va ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha bir necha qaror va farmonlar davlat dasturi va rejalar ishlanmoqda. Bu davlat iqtisodiy rivojlanish strategiyasi, besh bosqichi amalda o'z natijasini bermoqda. «Qoraqalpog'iston hududida 19 mehmonxona qurish ish-rejalari, «Achchiq ko'l» bo'yidan turistlarga dam olish uchun yangicha uy-xonalar, o'rinalar qurish, poytaxtimizni yanada go'zal, chiroyli qilib mehmonlarga sharoit yaratish chora-tadbirlar ishlanmoqda.

Yurtboshimizning: «Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanida turistik salohiyatini bundan buyon rivojlantirish bo'yicha»: «UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlarning grantlari, Mo'ynoq va Orol dengizi O'zbekistonda turistik hududlarning birdan-bir havas qilgudek, qiziqish va diqqatga sazovor hudud bo'lishi» haqidagi qarorda ko'rsatilgan edi.

«Orol va Mo'ynoqning qayta yangilanishi» bo'yicha xalqaro ekologik festival o'tkazish belgilandi. Mo'ynoqda «ekologik» va baliqchilar muzeylarini qayta ishslash, ichki sayohat ham jahon turizmi uchun qulay sharoitlar, o'zgacha va qiziqarli effekt beradigan chora-tadbirlar belgilandi.

«Mo'ynoq» diyorida «Mo'ynoq»-mayoq-qadimgi dengizni eslaydigan, ekologik oraliqning timsoli sifatida qurishiga chora ko'rildi. Mo'ynoq mayoqdan musiqa xonasida dengiz to'lqinining shovqini, chag'alay ovozi, dengizning qurib qolgan joylaridan uchgan «oqqum»

larning tuzli qumlar ko‘chishlari, uvullashini tinglagan, sezgan insonga tabiatni himoya qilish, tabiatni asrash, mehr berish zarurligi ekologik saboq beradi.

Ekotarbiya faqat Orol bo‘yi xalqlari uchun emas, dunyo bo‘ylab ekologik muammolari, ekologik harakat zarurligini anglatadi. «Orol ekologiyasi masalasida BMT ming Orol bo‘yi regioni uchun «Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik asosida TRAST fondining tuzilishi», undan oldin Orol bo‘yi xalqarolik innovatsion Markazning tashkillashtirilishi Qoraqalpoq xalqi uchun kelajakka katta ishonch va iftixor bag‘ishladi. (*Erkin Qoraqalpog‘iston 2018. №147 (20233) .).

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan: **«2018-2019 yillarga mo‘ljallangan Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar dasturi»** qabul qilindi. Shu davlat dasturi va rejalarini amalga oshirishda diyorimizda namunali rejalar asosida ishlar olib borilmoqda. Milliy meros obyektlariga e’tibor berish, ularni saqlash, esdaliklardan ichki turizmda foydalanish bo‘yicha reja va dasturlar asosida chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Yurtimizga jahon sayyoohlarining ko‘plab kelishi, dunyo turistik oqimining ko‘payishi o‘smoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonning eski shaharlari Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz ham tog‘li hududlardagi betakror, ajoyib joylarga sayyoohlar oqimi mavsum tanlamay kelmoqda. Respublikamizning shimoliy regioni Mo‘ynoq tumanida chet ellik sayohatchilar, jahon mehmonlari, Orol ekologiyasiga diqqati, Orolni ko‘rishga kelgan mutaxassislar oqimi ko‘paymoqda.

Yurtimizda hududiy turizmning ham shakillanishi bu: "O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!" shiori ostida olkamizga va viloyatlarga sayohatlarni tashkillashtirish bo‘yicha tegishli vazirliklar, korxonalar jamiyat tashkilotlar natijali ishlar olib bormoqda. Ular tarafidan o‘lkamizdagи, jahonga dong‘i ketgan "O‘zbekiston Gavhari", "Qizil qumdagи Luvr muzeyi" va "Nukus xazinasi" nomlarda dunyo dunyo sayoxatchilari havas qilgan muzeyimizga kun sayin oqib, yil sayin mehmon bo‘lib kelmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligi Igor Savetskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat ko‘rkam hunar muzeyning xizmatchisi, "Do’stlik" o’rdeni sohibi Aygul Pirnazarova : "Qoraqalpog‘istonda turizmni rivojlantirishda muzeylarning o‘rni va ahamiyati" haqida aytib berdi.U: Qoraqalpog‘iston xalqining boy ko‘rkam hunari, betakror merosilari, uning namunalari Poytaxtimizdagи qoraqalpoq ko‘rkam hunar muzeyiimizning bebaxo boyligi ekani, bular jahon turistlari havas qilib ko‘rishga sazovar ekanini aytdi. Davlatimiz rahbarining : "O‘zbekiston Respublikasida turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishni taminladh yo’llari haqida" gi Farmoniga muvofiq turizm yurtimiz iqtisofiyotining strategik tarmog‘i sifatida belgilandi.

Prezidentimiz: "ichki turizmni jadal rivojlantitishni taminlash choralari haqida" qarorida "Hududlarni doimiy ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning eng ahamiyatli jihatlarining biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, fuqorolarni yurtimizning madaniy tarixi merosi va

tabiy boyliklari bilan tanishtirish maqsadida: "O'zbekiston bo'y lab sayoxat qil!" ichki turizmni rivojlantirish dasturini oshirish bo'yicha amaliy choralarning rejasi, bugungi kunda hududlarda, ayniqsa, "Kelajak yoshlarimiz"ni ma'naviy tarbiya sohasida amalga oshmoqda va natijasini bermoqda.

Adebiyatlar

1. "Madaniy faoliyat va madaniyat tahskilotlari tug'risida"gi Qonun (URQ-668-son, 20.01.2021 y)
2. "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish shora-tadbirlari tug'risida"gi Prezident Farmoni (PF-6199-son, 06.04.2021 y)
3. Наследие Каракалпакстана YUNESKO, 2015.
4. Erkin Qoraqalpog'iston 2018 yil avgust. №147 (20233)